YENGIL SANOATNI RIVOJLANTIRISHDA XITOY TA'SIRINI MINIMALLASHTIRISH MODELI

Eshonqulov Javohir Sobirovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Matematika" kafedrasi dotsenti v.b.
Raxmonov Bahodir Abduhomidovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Matematika" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda Xitoy dunyodagi eng yirik to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqaruvchisi, eksportchisi va iste'molchisi hisoblanadi. Haqiqatan, Xitoy bugungi kunga kelib, yengil sanoat tarmog'i bo'yicha jahonda yetakchilik qilmoqda. Bu maqolada, yengil sanoatni rivojlantirishda mamlakatlar mintaqiy model fonida o'zlarining individual strategiyalarini ishlab chiqishi va milliy modellarini yaratishi qaralgan. Mazkur model istiqbolning 5 yillik davridagi Xitoy yengil sanotida kutilayotgan katta noaniqlik vaziyatidan samarali foydalanish va "Xitoyga muqobil" mamlakatlarning tarmoqda nufuzini oshirishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Xitoy ta'sirini minimallashtirish, Xitoy yengil sanoti, to'qimachilik, kiyim-kechak, eksportchi, iste'molchi, individual strategiyalar, eksportchi mamlakatlar, to'qimachilik va tikuvchilik tarmog'i, muqobil.

Аннотация. В данном время Китай является крупнейшим производителем, экспортером и потребителем текстиля и одежды в мире. Фактически Китай в настоящее время лидирует в мире в области легкой промышленности. В данной статье рассматривается, что при развитии легкой промышленности страны разрабатывают свои индивидуальные стратегии и создают национальные модели на фоне региональной модели.

[104] https://en.wikipedia.org/wiki/Western_Hemisphere

Эта модель включает в себя эффективное использование ситуации большой неопределенности, ожидаемой в китайской легкой промышленности в 5-летней перспективе, и усиление влияния «альтернативных Китаю» стран в сети.

Ключевые слова: Минимизация влияния Китая, легкая промышленность Китая, текстиль, одежда, экспортер, потребитель, отдельные стратегии, страны-экспортеры, текстильная и швейная промышленность, альтернатива.

Abstract. At present, China is the largest producer, exporter and consumer of textiles and clothing in the world. In fact, China currently leads the world in the field of light industry. This article discusses that in the development of light industry, countries develop their individual strategies and create national models against the background of a regional model. This model includes the effective use of the situation of great uncertainty expected in the Chinese light industry in the 5-year perspective and the strengthening of the influence of "alternative to China" countries in the network.

Keywords: Minimizing China's influence, China's light industry, textiles, apparel, exporter, consumer, individual strategies, exporting countries, textile and garment industry, alternative.

Xitoy ta’sirini minimallashtirish modeli. Mazkur model istiqbolning 5 yillik davridagi Xitoy yengil sanotida kutilayotgan katta noaniqlik vaziyatidan samarali foydalanish va “Xitoyga muqobil” mamlakatlarning tarmoqda nufuzini oshirishni o‘z ichiga oladi.

Xitoy dunyodagi eng yirik to‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqaruvchisi, eksportchisi va iste’molchisi bo‘lib, jahon kiyim-kechak eksportining 36 foizini tashkil qiladi. Haqiqatan, Xitoy bugungi kunga kelib, yengil sanoat tarmog‘i bo‘yicha jahonda yetakchilik qilmoqda. Xitoyda 370 mingdan ortiq sanoat korxonalari mavjud bo‘lib, hozirgi vaqtda yengil sanoat korxonalari soni 20 mingdan ortib ketdi. Tarmoqda banlar (tushunarsiz so‘z) soni 4,580 mln kishini, oyiga eng kam ish haqi stavkasi 146-350 AQSh dollarni, tikuvchining ish haqi 210-580 AQSh dollarini tashkil etadi[105]. 2022-yilda to‘qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari eksporti umumiy hajmi 323,3 mlrd AQSh dollarga yetgan, bu 2021-yilga nisbatan 2,6 foizga ko‘p ko‘rsatkich. Yengil sanoatiga investitsiyalar o‘tgan 2021-yilga nisbatan to‘qimachlikda 4,7 foizga, kiyim ishlab chiqarishda 25,3 foizga oshdi. Yigiruv quvvati global quvvatning yarmidan ko‘pini tashkil qiladi (110 mln shpl)[106].

Yengil sanoatni rivojlantirishda mamlakatlar mintaqiy model fonida o‘zlarining individual strategiyalarini ishlab chiqishdi va milliy modellarini yaratishdi. Jumladan,

Xitoyning xomashyo tanqisligi va noaniqlik sharoitidagi kelgusi 5 yillik rivojlanish modeli (CNTAC modeli). Keyingi paytlarda xomashyo va paxta yetishtirish bo‘yicha qisqarishlarga qaramay Xitoy yengil sanoati nazoratchi tashkiloti CNTAC ning keying besh yillik rejasida ishlab chiqarishni qisqartirish rejalashtirilmagan. Balki, yanada rivojlantirishni jahon ekspertlari tomonidan e’tirof etilayotgan “Xitoy yengil sanoatining noaniq 5 yili”da Xitoy yanada murakkab va yuqori texnologiyali yengil sanoatini rivojlantirish va ta’minot zanjirida qo‘shimcha funksiyalarda ishtirok etish yo‘li bilan amalga oshirishni hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida ichki bozorga ko‘proq tayanishni rejalashtirmoqda. Shuningdek, xorijdagi yengil sanoat korxonalarining asosiy investoriga aylanmoqchi. Bu amaliyot Xitoy tajribasida qo‘llanilgan bo‘lib, 2015-2020-yillar davomiyligida Belt va Road Initiative orqali Xitoyning xorijiy yengil sanoat tarmog‘idagi investitsiyasi hajmi 6,7 milliard dollardan oshdi. Shundan 26 foizdan ortig‘rog‘i, ya’ni, 1,8 milliard AQSh dollari Tailand, Vetnam, Kambodja kabi mamlakatlarga ajratildi. Mazkur modelni amaliyotda qo‘llash natijasida WTO prognozlariga ko‘ra[107] Xitoyning yillik kiyim-kechak chakana savdosi 2025-yilga kelib, 415 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

AQShning keyim-kechak import tuzilmasini o‘zgartirish yoki import diversifikatsiyasi

[105] https://shenglufashion.com/2021/12/27/statistics-global-apparel-market-2021-2026/

[106] USDA (FAS): (Bronson A.) Chinese cotton and cotton products. The 14th Five-Year Development Guidance for Cotton Textile Industry (2021-2025) / http://www.ccta.org.cn/syjdt/202201/t20220124_4234046.html

[107] https://www.wto.org/english/news_e/archive_e/stat_arc_e.htm

modeli. AQShning savdo strategiyasida birinchi o‘rinda kiyim-kechak import tuzilmasida sezilarli o‘zgartirishlar kiritish nazarda tutilgan bo‘lib, bu bilan tarmoqning bir tomonlama diversifikatsiyasini amalga oshirdi. Buning natijasida tarmoqning monopollashuv darajasini baholash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkich HHI indeksi (Herfindahl-Hirschman Index) 2023-yilda 0,091 (2018-yilda 0,147) ga, raqobatning o‘lchovi sifatida CR3 indeksi (bozorda faoliyat yurituvchi eng yirik 3 ta firmaning ulushi yig‘indisi) 45,9 foizga (2018-yilda 54,3 foiz), uning analogi CR5 indeksi 58,9 foizga (2018-yilda 64,3 foiz) teng bo‘ldi. AQSh tomonidan ta’minot zanjirini diversifikatsiya qilish sanoat korxonalari uchun ta’minot zanjiridagi xavflarni kamaytirish va bozor noaniqligini bartaraf etishning ishonchli strategiya maqomiga ko‘tarildi.

AQShning “Xitoy ta’sirini minimallashtirish” modeli. Amerika yengil sanoat korxonalari so‘nggi 5 yillikda “Xitoy ta’sirini” yanada kamaytirish faoliyati qamrovini kengaytirishdi. Natijada AQShga eng yirik kiyim yetkazib beruvchi sifatida Xitoy bozorining ulushi 2023-yilga kelib 30,6% ga tushib ketdi. Jahon ekspertlarining fikricha[108], bunda asosiy omillardan biri sifatida UFLPA qonuni (Uyg‘urlarning majburiy mehnatini oldini olish to‘g‘risidagi)ning kuchga kirishi bo‘ldi. Mazkur holatda muqobil variant sifatida, ta’minotchi sifatida Vetnam tanlanishi Osiyo rivojlanish modeli bo‘yicha mintaqaviy ta’minot zanjirida uning Xitoy missiyasiga salbiy ta’siri eng yuqori deb baholanishidan kelib chiqilgan deyish mumkin.

AQShning “Xitoyga muqobil” modeli. Mazkur model mohiyatan bugungi kunda “Xitoyga muqobil” mamlakatlar qatoriga kirgan Vetnam, Bangladesh, Indoneziya, Hindiston va Kambodja kabi mamlakatlarni “Xitoy ta’sirini minimallshtirish” modeliga asosan rag‘batlantirish, ular bilan savdo bitimlarini kengaytirish, qo‘shma korxonalar tashkil etish asosida ularning rivojlanish modellarini o‘zlashtirishdan iborat. Ushbu modelning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023-yil dastlabki choragida AQSh kiyim-kechak importining Xitoy ishtirokisiz ulushi 44,7 foizini tashkil etdi. Ushbu eksportchi mamlakatlar to‘qimachilik va tikuvchilik tarmog‘ida xavflarga muvozanatlashgan milliy modellariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Veit D. Simulation in Textile Technology: Theory and Applications. Woodhead Publishing, 2012. - XXIII, 360 p.

2. Salmi A. Implementing circular business models in the textile and clothing industry. Journal of Cleaner Production. Volume 378, 2022, 134492.

3. Boltabayev M.R. O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: i.f.d. diss. avtoref. – Toshkent: TDIU, 2005.–35 b.

4. Eshonqulov J.S. Yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishni ekonometrik modellashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Urganch-2024. – 120 b.

5. Rakhimov, A. N., & Eshonkulov, J. S. (2022). Improving the mechanism of increasing the economic power of industrial enterprises on the base of econometric models. Экономика и социум, (10-1 (101)), 145-153.

6. Рахимов, А., & Эшонкулов, Ж. (2022). Саноат корхоналарида ишлаб чиқаришнинг иқтисодий қувватини ошириш механизми. Экономика и образование, 23(6), 390-395.

7. Eshonkulov, J. .(2023). Improving the priority factors assessment system of the territorial development of light industry. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 2(18), 197–200.

[108] https://shenglufashion.com/2023/06/10/patterns-of-us-apparel-imports-updated-june-2023/